

Termiz shahrida "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi



Termiz shahrida "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan bayram tadbiri o'tkazildi. Kecha, 3-dekabr "Xalqaro nogironlar kuni" munosabati bilan "Shodiyona" tantanalar saroyida imkoniyati cheklangan fuqarolarga bayram dasturxonini yozilib, konsert tadbiri bo'lib o'tdi.

Bayramda xushovoz xonandalar tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar qatnashchilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

Tadbir davomida barcha qatnashchilarga bayram sovg'alari topshirildi.

